

TARIX VA JAMIYAT

HISTORY AND SOCIETY
ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО
общественный электронный
ЖУРНАЛ

JOURNAL
2022

№3

Bosh muharrir:
Pardayev A.H. JDPI, tarix fakulteti dekani, t.f.n. dosent.

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Aqchayev F.Sh. JDPI, tarix fakulteti, t.f.b.f.d. (PhD), dosent.

Mas’ul kotiblar:
Saidov J.O. JDPI, Tarix fakulteti o‘qituvchisi
Xo‘janova M. JDPI, Tarix fakulteti o‘qituvchisi

Tahririyat a’zolari:

- 1. Sagdullayev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik,**
- 2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor,**
- 3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor,**
- 4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 5. Choriyev S. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor,**
- 7. Pardayev M.H. – tarix fanlari doktori, dosent,**
- 8. G‘oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dosent,**
- 9. Yarmatov R. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dosent,**
- 10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), dosent,**
- 11. Amanullayev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dosent,**
- 12. Toshboyev F.E. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dosent,**
- 13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, dosent,**
- 14. Saidov M. – falsafa fanlari nomzodi, dosent,**
- 15. G‘ofurov J. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dosent,**
- 16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dosent**
- 17. Valiyev A.X. – katta o‘qituvchi,**
- 18. Majidov A.S. – katta o‘qituvchi,**
- 19. Karimova N. – o‘qituvchi,**

Тарих ва Жамият илмий журнали
AMIR TEMUR DAVLATIDAGI HUQUQIY MUNOSABATLAR HAQIDA

S.F. Furqatov - TDYuU,
Davlat boshqaruv huquqi
fakulteti I bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temurning davlatni boshqarish va amaldorlarni lavozimga munosib ravishda tanlash masalasidagi faoliyati hamda davlatning huquqiy munosabatlari haqida muallifning ma'lum fikrlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Huquqiy davlat, Davlat boshqaruvi, Vazir, Vazirliliklar, Amir Temur, "Zafarnoma".

Sohibqiron barpo etgan davlatning eng ko'zga ko'ringan va muammoli tomoni shundaki, Amir Temur kichik bir viloyat doirasida tarbiya topgan bo'lsa-da, davlat mafkurasining boshqaruv tayanchi kuchli hokimiyat ekanligini tushundi va davlat, saltanat ishlarini yuzaga chiqarishda kamchilikka yo'l qo'ymaydigan vazirlarni tanlashga harakat qildi.

Amir Temur davlati huquqiy tizimi nafaqat bizning tarixiy, madaniy va ma'rifiy merosimiz, balki siyosat olamida noyob ko'rinishdir. Sohibqiron davlatchiligining boshqaruv tizimi, ichki va tashqi siyosatining tartib qoidalari, huquqiy asoslarini yangi tarixiy sharoitda takomillashtirdi. Amir Temur hokimiyat tepasiga kelgach, barcha sohada mo'g'ullardan qolgan vayronagarchilikni tugatish va obodonlashtirish, qishloq xo'jaligi va sug'orish tarmoqlarini ta'mirlash ishlariga asosiy e'tibor qaratdi. Davlat turli toifaga mansub mulk sohiblarini birlashtirdi. Qattiq intizom o'rganildi. Mamlakatda ahvol yaxshilanib, aholining turmush darajasi yaxshilandi.

Amir Temur davlatida huquq tizimi quydagicha bo'lgan: Shayxulislom-mamlakatda musulmonlarni nojo'ya ishlardan saqlash va savob ishlarga undash bo'yicha ma'sul shaxs. Sadrlar esa, ahli islomga boshchilik qilib, vazifalari vaqflarni nazorat qilish bo'lsada, suyurg'olni ham belgilab turganlar. Qozi – har bir shahar va viloyatlar, devonning turli bo'g'inlarida qonunni nazorat qilgan. Qozilar martabasi va darajasiga ko'ra bir-biridan farq qilgan. Bular orasida qozi va sadrlar o'z ishlar yuzasidan shaxsan Amir Temurning o'ziga hisobot berib turganlar.

Amir Temur qat'iy qonunlar va tartiblarni o'z tuzuklarida yozib qoldirgan. Unda yozilishiyya, vazir to'rtta sifatga ega bo'lishi lozim deb xisoblagan: **birinchisi** - aslllik, toza nasllilik, **ikkinchisi** – aql-farosatlilik, **uchinchisi** - sipoxu raiyat axlidan xabardorlik, **to'rtinchisi** – sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik¹.

¹ Temur tuzuklari. T., Fan. 1992.18 b.

Тарих ва Жамият илмий журнали

Amir Temur hukmronlik qilgan davlarda davlatning markaziy ma'muriyat boshida devonbegi, arkbegi va to'rt vazir turgan. Vazirlar soliqlar yig'ish, meros ishlari, askarlar maoshi va ularni oziq-ovqat bilan ta'minlash, saroy harajatlari bilan bog'lik bo'lgan ishlarni bajarganlar. Amir Temur sultanatni boshqarishda, xususan, uni siyosiy va iqtisodiy jihatdan mustahkamlashda davlat ahamiyatiga molik masalalarni muhokama qilish va tadbir-choralar belgilab olish maqsadida qurultoylar va kengashlar o'tkazishga katta ahamiyat bergen².

Sharafuddin Ali Yazdiyning yozishicha, Amir Temur Qarshi, Samarqand, Qorabog' va boshqa joylarda o'tkazgan qurultoy va kengashlarda shahzodalar, davlat ma'murlari, harbiy boshliqlar, ulamolar va mulkdor zodagonlarning vakillari qatnashgan. Oliy darajadagi bunday yig'inlarda mamlakatning iqtisodiy va harbiy ahvoliga oid eng muhim masalalar muhokama etilar va zaruriy ishlarni bajarish yuzasidan qarorlar qabul qilinib, tadbirlar belgilanardi.

Davlat ahamiyatiga molik har bir masalani hal etishda Amir Temur shu sohaning bilimdonlari va olimlar bilan maslahatlashar edi. Masalan, 1403-yilda Kavkazda Boylaqon shahrida chaqirilgan kengashga olimu fuzalolarni taklif etgan. Ulardan mamlakatni boshqarishda, xususan, uning obodonchiligi yo'lida amalga oshiriladigan hayrli ishlar-jamoat binolari va inshootlar qurilishida unga o'z maslahatlari bilan ko'mak berishlarini so'ragan. Shunisi diqqatga sazovorki, bu davrda Amir Temur sultanatida o'tkazilgan qurultoy, kengash, shohona qabullar va dabdabali saroy marosimlarida o'rta asrlar turkiy (o'zbek) davlatchiligining o'ziga xos an'analari mujassam edi. Tantanali izdihomning tartib-qoidalaridan tortib, a'yonlarning to'yna liboslarigacha katta e'tibor berilgan.

Ispaniya elchisi Klavixoni Konigil mavzeida bo'lib o'tgan shohona izdihom ayniqsa hayratda qoldirgan. Konigilda 10-15 ming chodir o'rnatilgan bo'lib, izdihomda saroy ahli, vazirlardan tashqari, aholining turli tabaqa vakillari qatnashgan. Klavixo chodirgohda chodirlarning mansabdor shaxslar lavozimi bo'yicha joylashtirish tartibi, jahozi, bezaklari hamda ularning turlari haqida yozadi. Uning ta'riflashicha, bu yerda doirasimon oddiy kichik o'tovlardan tortib, arabiylar ibrohimiy chodirlari, eroniy saropardalar o'rnatilgan³.

Amir Temur har qanday holatda ham ruhoniy namoyandalariga har vaqt xayriyohlik bilan munosabatda bo'lgan. Hatto zabit etilgan mamlakatlarda ham ruhoniy rahbarlar himoya ostiga olinib, ko'pincha ular shaxsan Amir Temur huzuriga keltirilgan - u esa ulamoyu fuzalo bilan munozara yuritishni yoqtirardi. Jumladan, u ilohiyotchi ulamolar, faylasuflar, tarixnavislar, munajjimu riyoziyot ilmi olimlari bilan munozara qilardi. U olimlarni o'zi bilan shunday munozaralarda

² I.Mo'minov Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. Toshkent. Fan, 1993. B. 31.

³ Rui Gonsales de Klavixo. Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406 yillar). Toshkent, 2010. B. 146, 158-159.

Тарих ва Жамият илмий журнали

bemalol emin-erkin suhbat yuritishga rag‘batlantirardi. Agar ular Amir Temurda katta taassurot qoldirsalar, ularni o‘z saroyiga yoki Samarqandga xizmatga taklif qilar yoxud o‘z mamlakatlarida qolishlariga bag‘ri kenglik bilan ruxsat etardi.

Ma’lumki, Amir Temurning davlat boshqaruv tizimi butun hududda yagona markazlashgan siyosiy tartib asosiga qurilgan edi. Davlat o‘z tarkibiy tuzilishiga ko‘ra xarbiy-siyosiy tartiblarga asoslangan edi. Amir Temur o‘ziga qadar mavjud bo‘lgan davlatchilikning sakkizta asosiga amal qiladi. Amir Temur davlatchilikning bu asoslariga to‘qqizinchisini, ya’ni, jamiyat rivoji va barcha ijtimoiy tabaqalar, manfaatlarini ta’minlashini qo’shdi. Boshqaruv ikki idoradan: dargoh va vazirlik (devon) dan iborat bo‘lgan. Dargohni Oliy hukmdor boshqargan. Dargoh faoliyatini boshqarish, uning devonlar, mahalliy hokimiyat idoralari bilan bog‘lanib turish ishlarini Oliy devon yuritgan⁴. Oliy devonda-ijroiya hokimiyatida bosh vazir, harbiy vazir, mulkchilik va soliq ishlari vaziri, moliya vaziri turgan. Sarxadlar va tobe mamlakatlar boshqaruvi bilan shug‘ullanuvchi uch vazir devonbegiga hisobot berib turgan. Markaziy hokimiyat tizimida shayxuislom, qozikalon, qoziy axdos (odat bo‘yicha hukm chiqaruvchi qozi), qozi askar, sadri axzam (vaqf yerlari, mulklari musaddisi), dodxox (shikoyatlarni ko’rvuch), eshikog‘a, saroy vaziri, yasovul va boshqalar bo‘lgan.

Xulosa qilib aytganda, Temur davlat boshqaruvida, ichki va tashqi siyosatda asosan o‘z qo‘sishinlariga suyanganligi sababli harbiy islohotga, ya’ni qo‘sishin boshliqlarini tanlash, lashkar qismlar, ularning joylashishi, askarlarning qurollanishi va harbiy intizom masalalariga keng e’tibor bergen. Saltanatdagi boshqaruv tartiblari qadimgi turkiy tuzuklarga asoslangan bo‘lib, ijtimoiy-siyosiy hayot davlatchilik tamoyillari bevosita Sohibqiron bobomizning o‘z tafakkur kuchiga, fikrining to‘g‘riligiga, taktika va strategiyasining puxta, hayotiy va yashovchi ekanligiga qat’iy ishonch asosida shakllanganligi ahamiyathlidir.

⁴ Amir Temur jahon tarixida. (mualliflar jamoasi). T., “Sharq”, 1996. B. 94-95.